

# **Surxondaryoning Xatak g'orida yana bir neandertal odam makoni aniqlandi**



Sherobod tumanida joylashgan Surxon davlat qo'riqxonasi, Xatak bo'limi, Bog'li dara massivida 2021 yilda arxeologlar tomonidan mil.avv. 100-40 ming yillikka oid neantortal odam makoni topilib, joriy yilning iyun oyidan keng ko'lamli qazishma ishlari boshlab yuborildi.

Qazishma davomida vertikal qoyaning yuzasida 15-20 m balandlikda hosil bo'lgan va kirish juda qiyin bo'lgan ushbu g'orda tosh quollar, yovvoyi hayvonlarning maydalangan suyaklari bilan birga 100-60 ming yil oldin yashagan neandertal odami hayotining to'liq va buzilmagan manzarasi (kul, dumaloq o'choq qoldiqlari) saqlanib qolganligi aniqlandi.

G'orning fan uchun ahamiyatli tomoni shundaki, Surxondaryo viloyatining nafaqat tog'li Boysun tumani, balki Sherobod tumani ham ilk insonlar makoni sifatida o'z isbotini topdi.

O'zR FA Milliy arxeologiya markazi hamda Avstraliyaning Griffet universiteti xodimlari tomonidan qazishma ishlari davom ettirilmoqda.